

O'ZBEK TILI HARAKAT FELLARI

Musaev Islomxon Xodi o'g'li

Alfraganus universiteti universiteti arab tili o'qituvchisi

ismusayev94@gmail.com

tel.: (91) 3229445

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek tilidagi harakat fellari, ularning semantik xususiyatlari va grammatik jihatlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada harakat fellarining qo'zg'alish fellari bilan farqlari, ularning grammatik va semantik o'ziga xosliklari, shuningdek, harakatning boshlanishi va tamomlanishini bildiruvchi fe'llar tahlil qilinadi. M. Sodiqova va N. K. Dmitrievning fikrlari asosida harakat fellarining stilistik tahlili ham yoritilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek shevalaridagi fonetik o'zgarishlar, undosh va unli tovushlarning tahlili ham o'rganilgan. O'zbek tilining harakat fe'llariga oid lingvistik xususiyatlari, ularning turli dialektlarda qanday o'zgarishlarga uchrashi va semantik talqinlari maqolada alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: harakat fellari, semantik xususiyatlar, qo'zg'alish fellari, grammatik hususiyatlar, stilistika, sheva, fonetik o'zgarishlar, undosh tovushlar, unli tovushlar, o'zbek tili.

Annotation: This article provides detailed information about action verbs in the Uzbek language, their semantic characteristics, and grammatical aspects. It analyzes the differences between action verbs and motion verbs, focusing on their grammatical and semantic peculiarities, as well as verbs that indicate the beginning and completion of an action. The stylistic analysis of action verbs, based on the ideas of M. Sodiqova and N. K. Dmitriev, is also discussed. Additionally, the article examines phonetic changes in Uzbek dialects, with a focus on consonants and vowels. The linguistic features of action verbs in Uzbek, their variations in different dialects, and their semantic interpretations are analyzed in the article.

Keywords: action verbs, semantic features, motion verbs, grammatical characteristics, stylistics, dialect, phonetic changes, consonants, vowels, Uzbek language.

Harakat fellari nutqda katta ahamiyatga ega bo'lib, professor N. K. Dmitriev u haqda qimmatli fikr bildirgan, harakat fellarini felning boshqa turlaridan ajratib o'rganish lozimligini takidlagan. M. Sodiqova harakat fellarining doirasini tahlil qilib, fellarni stilistika nuqtai nazardan talqin qilgan. Haqiqatdan ham, harakat fellari o'ziga hos hususiyatga ega bo'lib, unga doir ko'p masalalar hozirgacha hal bo'lmagan. Biz bu maqolada harakat fellari haqida to'xtalamiz.

Yurish-harakat lingvistik tushuncha bo'lib, u subyektning muayyan makonda oyoqlar yoki transport vositalari yordamida amalga oshiradigan harakatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Subyektning shunday harakatini aks ettiruvchi fe'llar tilshunoslikda yurish-harakat fe'llari deb ataladi. Har bir fe'l u qanday harakatni ifodalashidan qat'iy nazar, o'zining leksik ma'nosiga egadir. O. E. Mavlonberdiyevaning fikricha, so'zning leksik ma'nosi tilga bog'liq bo'lmagan borliq bilan o'zaro chambarchas bog'liqlikda bo'lib, u ikki ko'rinishda bo'ladi: 1) signifikativ ma'no, 2) denotativ ma'no. Har bir harakat fe'li leksemasi boshqa fe'llardan denotativ ma'nosi orqali farqlanadi, hamda ular signifikativ ma'no doirasida birlashadi. So'zlarning ma'no jihatidan bunday bog'langanligi bitta tematik guruhni, bitta semantik maydonni tashkil etadi.

Harakat fellarining semantik atfenkalari turlicha. Chunonchi, harakat fellarining quzg'alish fellaridan farqi shuki, quzg'alish harakat egasini bir o'rindan ikkinchi bir o'ringa o'tishini, kuchayishini bildiradi. Masalan, kelmoq feli predmetning yoki odamning aytuvchiga, malum bir abektiga yaqinlashishini, ket

feli esa uzoqlashishini bildiradi. Harakat fellarida harakat egasi bo'lgan predmet o'rin o'zgartirishi mumkin.¹ Masalan, o'rmoq, uzmoq, sanchmoq, otmoq kabi. Harakat fellarining qo'zg'alish fellaridan ikkinchi farqi- Grammatik hususiyatida. Harakat fellari o'timli fel hisoblanadi va o'zi tegishli bo'lgan obektini bildiradigan so'zning tushum kelishigida turishini talab etadi. Qo'zg'alish fellari esa o'rinpayt, junalish va chiqish kelishijli so'zlar bilan so'z birikmasini hosil qiladi (tushum kelishikli so'zlar bilan kam ishlatiladi).

Harakat fellarining semantik xususiyatlari quyidagicha:

Ichish va yeyish harakatini bildiradi: yemoq, ichmoq, nonushta qilmoq, ovqatlanmoq, oshamoq, ko'tarmoq, g'ajimoq, sipqirmoq kabi.

Yaratish va bunyod qilish manolarini bildiradi: bino qilmoq, yaratmoq, qurmoq, bunyod qilmoq, devor kutarmoq, nashr etmoq, chop etmoq, yasamoq, tuzmoq kabi.

Buzish va yemirish manolarini bildiradi: kesmoq, chopmoq, parcha-parcha qilmoq, majaqlamoq kabi.

Jamlamoq va birlashtirmoq harakatini bildiradi: yig'moq, to'plamoq, jamlamoq, birlashmoq, birikmoq, tutashmoq kabi.

Urishish va mushtlashish harakati manolarini bildiradi. Mushtlashmoq, olishmoq, bellashmoq, savalamoq, tepmoq urmoq, yoqalashmoq kabi.

Taqdirlash harakat manolarini bildiradi: mukafotlamoq, taqdirlamoq kabi. O'qish va yozish manolarini qo'llaniladi: yodlamoq, yozmoq, varaqlamoq, ruyhatga olmoq, rasm solmoq kabi.

Paymol qilish, ezish manolarini bildiradi: ezmoq, poymol qilish, toptamoq, qismoq, g'ijimlamoq kabi.

Ushlash va bog'lash manolarini bildiradi: arqonlamoq, bog'lamoq, tutmoq, ushlamoq, zanjirband qilmoq, qo'ltiqlamoq kabi.

Qamash va yopish manolarini bildiradi: bekinmoq, zanjirlamoq, yopmoq, xibsga olmoq kabi.

Bo'shatish va ozod qilish manolarini bildiradi: bushamoq, ozod qilmoq, qutqarmoq, ozodlikka chiqmoq, qutilmoq kabi.

Harakat obekti bo'lgan predmedning ko'rinishini o'zgartirishga qaratilgan harakatni ifodalovchi fe'llar: bezamoq, buyamoq, pardozlamoq, sirlamoq, naqshlamoq, boshlamoq, ishga kirishmoq, tamomlamoq, tugallamoq, ado qilmoq kabi.²

Joylashish harakatini bildiradi: o'rnashtirmoq, joylamoq, egallamoq, qoplamoq kabi.

Parvarish qilish harakati manolarini bildiradi: boqmoq, qaramoq, kuzatmoq, parvarish qilmoq, talim bermoq kabi.

Raxbarlik qilish harakati manolarini bildiradi: boshqarmoq, idora qilmoq, hokimlik qilmoq, homiy bo'lmoq kabi.

Uchrashuv harakatini bildiradi: duch kelmoq, yuliqmoq, yuzlashmoq, tuqnashmoq, uchramoq kabi.

¹ G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'urov R. O'zbek tili morfem lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1977.

² Tursunova O. Fonopoetikada qofiya masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2009. №1.

Qidirish harakati manolari: izlamoq, qidirmoq, axtarmoq kabi

“Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda oltitadan o‘ntagacha unli tovush bor. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda 6ta, singarmonizmli shevalarda esa 9-11 ta unli qo‘llanadi. Toshkent shevalarida Ъ, е, а, е, о, u Samarqand shevasida Ъ, е, z, а, о, u unilari qo‘llangan bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda e unlisi bilan birgalikda a unlisi ham uchraydi. (Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir.)

Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) 11 ta (a,e,a, i,Ъ, Ы,, Ъ,о, v, u, u) unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham 1 lta unli tovush qayd qilinadi.

O‘zbek shevalaridagi undoshlar haqida. Sof turkiy so‘zlarda b(6), p(n), v(b), t(m), t(t), d(a), s(c), ch(ch), dj(dj), sh(ui), p(n), l(l), r(p), y, k(k), g(r), s, x, q(k), h(x) undoshlari doim iste‘molda bor. o‘zlashgan so‘zlarda s undoshi s(ts) bilan, j (sirgaluvchi bolsa ham) undoshi dj kabi tallaffuz qilinadi. f undoshi undov va taklidiy so‘zlarda aynan talaffuz etiladi, o‘zlashgan so‘zlarda esa p, ba‘zan b undoshiga moyil talaffuz qilinadi. H undoshi aksariyat shevalarda x undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forscha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan undoshlar shevalarda o‘zbek tili artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.”Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) 11 ta (a,e,a, i,Ъ, Ы,, Ъ,о, v, u, u) unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham 1 lta unli tovush qayd qilinadi.³

O‘zbek shevalaridagi undoshlar haqida. Sof turkiy so‘zlarda b(6), p(n), v(b), t(m), t(t), d(a), s(c), ch(ch), dj(dj), sh(ui), p(n), l(l), r(p), y, k(k), g(r), s, x, q(k), h(x) undoshlari doim iste‘molda bor. o‘zlashgan so‘zlarda s undoshi s(ts) bilan, j (sirgaluvchi bolsa ham) undoshi dj kabi tallaffuz qilinadi. f undoshi undov va taklidiy so‘zlarda aynan talaffuz etiladi, o‘zlashgan so‘zlarda esa p, ba‘zan b undoshiga moyil talaffuz qilinadi. H undoshi aksariyat shevalarda x undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forscha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan undoshlar shevalarda o‘zbek tili artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.⁴

O‘zbek tilidagi til birliklarini variant munosabatida o‘rganish jarayonida o‘zbek shevalari fonologik tizimi ham sistem jihatdan tahlil qilinmoqda.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

3. G‘ulomov A., Tixonov A., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1977.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zME, 2002.
5. Abdullayev A.O‘zbek tilida yekspressivlikning ifodalanishi. – T.:Fan, 1983. 6.Tursunova O. Fonopoetikada qofiya masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2009. №1.
7. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.

³ Tursunova O. Fonopoetikada qofiya masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2009. №1.

⁴ [Ashirboyev Samixon. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI. 16-17-бетлар]